



THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Dilafruz I. Askarova

Lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: folk pedagogy, education-upbringing, the younger generation, thinking, oral folk art, culture, spirituality, values, traditions.

Received: 14.05.22

Accepted: 16.05.22

Published: 18.05.22

Abstract: This article will focus on the essence of the formation of the creative potential of students of higher education institutions on the basis of folk pedagogy. Folk pedagogy is a rich history, ancient traditions, the center of education of each nation. As future teachers, students must first understand the essence of folk pedagogy and receive spiritual education.

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI

Dilafruz I. Asqarova

O'qituvchi

Farg'onan davlat universiteti

Farg'onan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xalq pedagogikasi, ta'lim-tarbiya, yosh avlod, tafakkur, xalq og'zaki ijodi, madaniyat, ma'naviyat, qadriyat, urf-odat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasasi talabalarini xalq pedagogikasi asosida ijodkorligini shakllantirish mazmun mohiyati haqida so'z boradi. Xalq pedagogikasi bu - har bir xalqning boy tarixi, qadimiy urf-odatlari, tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Talabalar bo'lajak pedagog sifatida avvalo o'zlarini xalq pedagogikasi mohiyatini tushunishi va ma'naviyati bilan tarbiyalangan bo'lishi zarur.

РОЛЬ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Дилафруз И. Аскарова

Преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: народная педагогика, образование-воспитание, подрастающее поколение, мышление, устное народное творчество, культура, духовность, ценности, традиции.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о сущности формирования творческого потенциала студентов высшего учебного заведения на основе народной педагогики. Народная педагогика-это богатая история, древние традиции, очаг воспитания каждого народа. Как будущие педагоги, студенты должны сначала понять сущность народной педагогики и получить духовное воспитание.

KIRISH

Mamlakatimiz ta’lim tizimida uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligidan, balki butun jahonda ham katta e’tibor bilan e’tirof etilmoqda. Bugun yangicha qiyofa kasb etgan, zamon talablari darajasida ta’mirlangan, eng so‘nggi rusumdagι o‘quv jihozlari bilan jihozlangan o‘quv binolar orzu emas ayni haqiqatdir.

Mamlakatimiz ravnaqi va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan xalqning bilim darajasi va dunyoqarashiga bog‘liq. Shaxsning ta’lim-tarbiya sohasidagi faolligi, uning chinakam fuqarovonligi, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda. Ya’ni, o‘z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o‘zlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq”[1, 168].

ASOSIY QISM

Oliy ta’lim muassasalarida ijodkorlkni rivojlantirishda xalq pedagogikasidan foydalanishni talabalarining ongiga singdirish ahamiyatlidir. Xalq pedagogikasi borliq olamning, tafakkurning, tasavvurning, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaning barcha jabhasini, butun muammolarini,jamiki yechimlari bilan birga qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Uning oldiga qo‘ygan maqsad vazifasi aniq, ravshan, maqsadli,ayni chog‘da xayrli, savobli va ilohiydir: hayot guli, sarvari, egasi bo‘lmish insonni yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashdir[2].

Oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan har bir bo‘lajak pedagog o‘zining ilmiy faoliyatida albatta yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bilan faoliyat olib boradi. Xalq pedagogikasi ma’naviyati bilan sug‘orilgan talabalar kelajak faoliyatlarida yosh avlodga bilim berishda o‘zida shakllangan bilim va malakalardan foydalanadi. Mazkur jarayonda har bir kamol topib kelayotgan yosh avlod ong-u, tafakkurida yuksak axloqiy tuyg‘ularni, fazilatlarni tarkib toptirib borishda, yaratilgan ijobiy muhit muhim o‘rin tutadi. Negaki, bolada yuzaga keladigan ijtimoiy xulq-atvor aynan maktabgacha ta’lim tashkilotida nomoyon bo‘lishi, yuzaga kelishi hech kimga sir emas.

Bu xususida fransuz psixologi E.Dyurkgeym “ulg‘ayish - kishilarining his-tuyg‘ularni o‘zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an’ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutadi” deb aytib o‘tadi[3, 185].

Jahon amaliyotida ta’lim mazmunini standartlashtirish bilan bog‘liqlikda bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni jadal o‘zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Ta’lim muhitini loyihalashtirish, individuallashtirish, tabaqaqlashtirish, kasbiy yo‘naltirish, qo‘srimcha ta’lim dasturlari asosida ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish yo‘llarini erkin tanlash imkoniyatini yaratib beruvchi o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyoda bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan (modulli texnologiyalarni ishlab chiqish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarni oshirish, moderatorlik va supervayzerlik qobiliyatları, tizimli tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish mahoratini rivojlantirish kabi) ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy pedagogik fanlar va oilada bola tarbiyasi amaliyotining rivoji uchun shuni ta’kidlash joizki, deyarli barcha xalqlar, farzandni chaqaloqlik chog‘idanoq tarbiyalash, bolalarni shaxslararo munosabatlarga va mehnatga tayyorlash bilan bog‘liq sog‘liqni saqlashga oid ko‘plab urf-odatlar, an’analar,qadriyatlar ma’lum.

Xalq pedagogikasi jamiyat bilan o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy ta’sir jarayonini o‘rganadi, bu jarayon asnosida ijtimoiy qoidalar, qadriyatlar, tajribalarni o‘zlashtiruvchi shaxs rivojlanadi, bolalarni tarbiyalash va o‘qitish haqidagi diniy ta’limotlar, ertaklar, dostonlar, maqol va matallar, o‘yinchoqlarda, oilaviy va ommaviy tadbirdarda, an’analarda aks etgan xalq tafakkuri hamda falsafiy-ahloqiy, tarbiyaviy fikr va qarashlar haqidagi xalq bilimlarini to‘playdi va bir tizimga soladi. Qisqacha qilib aytganda, shaxsnинг tarixiy-madaniy shakllanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi butun tarbiyaviy (pedagogik) quvvatini jamlaydi. O‘tmishdagi ko‘plab mashhur xalq muallimlari xalqning ta’limiy dunyo qarashini va uning ta’lim sohasidagi tajribasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratganlar. Mumtoz adabiyot vakillari xalq ta’limi haqidagi fanni boyitishi, unga asos va tayanch bo‘lib xizmat qilishi haqida qayta-qayta ta’kidlaganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari bola tarbiyasida onaning roli nechog’lik ahamiyat kasb etishini uqtirganlar zero, ongli, o‘qimishli, tarbiyali onagina jamiyat va xalq, din va imyon uchun foyda krltiradigan farzand o‘stiradi. Xalq pedagogikasida tarbiyaning jonli tarbiya ya’ni na’muna bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.. Bashariyat ma’naviy rivojlanishda muayyan tarbiyaviy bilimlar aniq bir davr tarixiy bosqichni aks ettirar ekan, bunda xalq ta’limi tarbiya fani yuzaga kelgan va rivojlangan asos bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning yuzaga kelishi xalq og’zaki ijodiga barham bermagani kabi tarbiya fanining vujudga kelishi uning tarbiyavaiy qarashlarini ham xalqning kundalik hayotidan siqib chiqarmagan. Tarbiya fani va xalq tarbiyasi (ta’limi) bir-biri bilan o‘zaro uzviy hamkorlikda rivojlanib bordi, yagona kenglik vujudga keltirgan holda bir biriga o‘zaro qulaylik yaratdi. Bu kenglikni tarbiya madaniyati deb atash mumkin. Xalqda azaldan o‘ziga xos ahloqiy turmush, ma’naviy madaniyat tarkib topgan.

Insonning ma’naviy madaniyatligining eng oliv darajasi chuqur bilimli, tafakkur dunyosi rivojlangan, fikr doirasi keng, olamning yaralish va taraqqiyot bosqichlari haqida chuqur bilimi shakllangan bo‘lishidan iboratdir.

Xalq pedagogikasining samaradorligi shundaki, bunda har bir xalqning an’alarini ularning vujudga kelish tarixini va bu tarix nima uchun qanday qilib saqlanib kelinayotgani hamda kelajak avlodga munosib tarzda yetkazish va rivojlantirishdan iboratdir. Bu masalada shox va shoir mirzo Bobur hazratlarini misol qila olishimiz mumkin. O‘zları Ona Vatandan yiroqda bo‘lsalar ham farzandlari va avlodlariga o‘z xalqi tarixi urf-odatlari, qadriyatlar, milliy g‘urur tushunchalarini singdira olganlar. Avlodlar ham o‘z o‘rnida mana shu tarbiya orqali ajdodlari va ularga munosib avlod bo‘lishga intilganlar.

Har bir jamiyat kelajagi va ravnaqi uchun albatta xalq pedagogikasini oliv ta’lim muassasalarida talabalar ongiga singdirish lozim. Chunki, talabalar bo‘lajak ustoz va bilimga yo‘naltiruvchilardir. Albatta, yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan hunar kabidir. Albatta,

xalq pedagogikasini nazariyotini amaliyat birga olib borish darkor. Ta’lim-tarbiya sohasida faoliyat olib boruvchilar va uni rivojlantirishga xissa qo’shuvchilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning yosh avlodga ta’siri shunchalik samarali bo‘ladi. Xalq ta’lim-tarbiyasi faqat mutaxassis pedagoglar ta’lim-tarbiyasi emas, balki, butun jamiyat ta’lim-tarbiyasi, umumiy ahloq normalaridir. Xalqning ma’naviy hayotini har doim halol mehnat, ruxiy iste’dod va insoniylik belgilab kelgan, aynan shular chinakam xalq xususiyatini tarbiyalashda asos bo‘lib xizmat qilgan. Har bir shaxs kelajak avlod uchun, jamiyat uchun biror naf keltiradigan ish qilib qoldirmog’i lozim. Insomning hayotda tutgan o‘rni ham, dunyoga kelib-ketishdan maqsadi ham uning “tarqatgan ilmi, qobil farzandi, meros qoldirgan Qur’oni, qurgan masjidi,mehmonxonasi, chiqargan suvi, odamlarga qilgan yaxshiligi, jamiyat taraqqiyotiga qo’shgan hissasi bilan belgilanadi. Hayotda, mehnatda halollik, tejamkorlik farovon turmushning, vijdon sofligining,umuman olganda iymon butligining belgisidir. Iymoni butun insonda hech vaqt yomon illatlar shakllanmaydi, jamiyat va biror shaxs ushun zarar keltirmaydi.

XULOSA

Ma’lumki, og‘zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo‘lmashdan ilgari, uzoq o‘tmishdayoq mavjud bo‘lgan. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma’naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir. Xalq og‘zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o‘ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo‘shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o‘qiydilar. Xalq og‘zaki ijodi bilan bolalar muktabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, so‘z ma’nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiyligi kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag‘ishlaydi, uni o‘ziga mahliyo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”. 2017 yil.
2. M.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011 yil.
3. David G. Myers. “Psychology ninth edition in modules”. NY, WORTH PUBLISHER. 2010 y.
4. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. *Теория и практика современной науки*, (5), 67-69.
5. Yuldashev, I., & Toshboltaeva, N. I. (2020). Analysis Of Personality Traits In Athlete Activities. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 72-74).

6. Yuldashev, I., Parpiev, O., Makhmutaliev, A., Tukhtanazarov, I., & Umaralievich, K. U. (2021). Pedagogical bases of formation of physical culture and social culture in Youth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 54-58.
7. Юлдашев, И. А. (2020). СОТРУДНИЧЕСТВО МАХАЛЛИ И КЕНГАША СХОДА СЕЛЬСКИХ ГРАЖДАН, ШКОЛЫ, СЕМЬИ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ У ПОДРОСТКОВ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. *Редакційна колегія: АА Сбруєва—доктор педагогічних наук, професор (відповідальний редактор)*, 139.
8. Tojaliev, A. A. (2021). Higher education system-a guarantee of sustainable development of society. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1021-1025.
9. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 11-16.
10. Tojaliyev, A., & Tojaliyeva, G. (2021). INNOVATIVE DIRECTIONS IN THE FIELD OF PEDAGOGICAL EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 22-25.
11. Isroilov, M. (2022). The system of education and its interaction with the concept of spirituality. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(1), 88-93.
12. Ismoilovich, I. M. (2021, July). ISSUES OF TRANSFORMATION OF EDUCATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 227-239).
13. Исройлова, С. М. (2018). Понимание" интерактивность" и" интерактивное обучение" в образовательной среде. *Вопросы науки и образования*, (3 (15)), 122-124.
14. Парпиева, М. М., Исраилова, С. М., & Мадумарова, М. Д. (2019). Преимущества применения ИКТ (информационно-коммуникационных технологий) на уроках русского языка. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 90-92.
15. Абдумаликов, А. А. (2017). ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ. *Theoretical & Applied Science*, (11), 277-280.
16. Abdumalikov, A. A. (2017). FORMATION OF YOUTH INFORMATION CULTURE. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(55), 277-280.
17. Абдумаликов, А. А. (2020). VIOLATION OF CONTRADICTION BETWEEN SOCIETY AND NATURE AS A GLOBAL CIVILIZATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 218-224.
18. Абдумаликов, А. А. (2019). HUMAN AND NATURAL HARMONY IN THE HISTORICAL PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(5), 205-209.

19. Абдурахмонова, М. М. (2021). НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ ДЛЯ ПРИНЯТИЯ ЭФФЕКТИВНЫХ РЕШЕНИЙ В ШКОЛЕ. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
20. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICAL CULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
21. Муйдинова, М. М. (2021). АРХИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ОБЪЕКТ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
22. Zokirovich, Q. S. (2021). Social factors of entrepreneurship support in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1502-1507.
23. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o‘qitish metodlari orqali iqtidorli o‘quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(12/S), 86-92.
24. Арипов, З. Т. (2020). ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВОЙ ГОТОВНОСТИ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ К ОБУЧЕНИЮ. In *ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 108-112).
25. Мадумарова, М. Д., & Истроилова, С. М. (2018). Некоторые аспекты обучения русскому языку в национальных группах. *Достижения науки и образования*, (16 (38)), 54-55.
26. Valievich, Y. S. (2020). CHILDREN’S GAMES AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE UPBRINGING OF A HARMONIOUS GENERATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).
27. Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O‘YINLARINING ETNOPEDAGOGIK TASNIFI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 77-81.
28. Toirjonovich, A. Z. (2022). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 92-96.
29. Yuldashev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(11), 36-40.
30. Ashurova, O. A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 46-52.

31. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
32. Sayitkhonov A. THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF YOUTH TO ENTREPRENEURSHIP //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 38-41.
33. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 481-484.
34. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 425-427.